

## KO'PXOTINLILIK- MAISHIY HAYOTIMIZ MODASIGA AYLANDI

**Ramazonov Amir Akbarovich**

Toshkent davlat yuridik universiteti

“Xususiy huquq” fakulteti talabasi

O'zbekiston jamiyati ko'p asrlar davomida milliy an'ana va urf-odatlar asosida shakl-shamoyil bilan qurildi. Qadimdan xalqimiz o'z an'alariga sodiq qolib, har bir yo'nalishda rivojlandi. Mamlakatimizdagi asosiy an'ana va urf-odatlar din asosida vujudga keldi. Miloddan avvalgi I ming yillikda zardushtiylik dinining Xorazm viloyatida vujudga kelib, keng tarqalishi hozirgi kungacha saqlanib qolgan urf-odatlarda ko'rinib turadi. Oila, nikoh marosimlarida zardushtiylikning belgilari mamlakatimizdagi ba'zi viloyatlarning to'y marosimlarida yaqqol sezilib turadi.

VI asrda Islom dinining yurtimizda yoyilishi o'zbek xalqini tub burilishiga olib keldi va bu hozirgi kundagi jamiyat uchun ahamiyatga ega bo'lgan foydali urf-odatlar va an'alarini shakllantirdi.

Millatimizni shakllantirishdagi asosiy omil bu islom dinidir. Ammo dunyo sivilizatsiyasidagi yetakchi universitetlarning ishlab chiqqan rivojlanish dasturlari zohiran rivojlanishga harakat qilish yo'llarini ko'rsatsada, biroq botinan islom an'alariga qarshi islom sivilizatsiyaairini o'z girdobiga tortishni maqsad qilgan.

O'zbek jamiyatida xalqning asrlar davomida shakllangan prinsipi bu oila jamiyat va millatning asosiy, bosh tayanchidir. Oilani yaratish, ikki tomon munosabatlarining o'zaro mos tushishi, oilani saqlab qolish, farzand tarbiyasi nafaqat ikkala tomonning balki, ularning ota-onasi, jamiyatning, davlatning ham majburiyatidir.

### **“Tayanch ustunini saqlab qola olmagan davlat kun kelib qulaydi.”**

Nikoh tomonlarning roziligi, yangi hayot qurish va hayotning kam-ko'stini birgalikda o'tkazishga rozilik bilan quriladi. Qadriyatlar asosiga qurilgan nikoh davlat tomonidan ro'yxatdan o'taziladi va muhofaza qilinadi.

Ammo nikoh doim bekami-ko'st bo'lmagan... Tomonlarning bir-birlari bilan chiqisha olmasligi, bu davrda yuzaga kelgan muammolar, ijtimoiy o'zgarishlar, jinsiy va moliyaviy yetishmaslik yoki keragidan ortiqlik nikohlar ajralib ketishiga yoki ko'pxotinlilik va ko'perlilikka olib kelmoqda. Jamiyatda bu qanday shakllandi? Uning sababchilari kimlar? Davlatimiz bunga qanday choralar ko'rmoqda? Illatning vujudga kelishida nima sabab bo'ldi? Tarixda bu holatga qay tariqa javob qaytarilgan? Chegaralarimizdan tashqarida bu borada qandam holatlar kuzatilmoqda? Biz o'zimiz qanday yo'l tutsakgina illatni kamaytirishga erishishimiz mumkin?

Farovon jamiyat tuzish istagida bo'lgan insonlar doimiy keng tarqalgan to'siqqa duch kelishadi. Bu to'siq jamiyatda noto'g'ri talqin qilingan diniy va an'anaviy qadriyatlar natijasida oqibati og'ir bo'lgan holatni keltirib chiqarishi mumkin. Ko'pxotinlilik bunga yorqin misoldir. O'rgimchak to'riga aylanib ulgurgan bu ijtimoiy muammo o'zidan salbiy oqibatlar keltirib chiqarmoqda. Yuzlab oilalarning buzilishiga, bolalarning yetim qolishiga, ayol nomusining jamiyatda toptalishiga, ikki jins vakillarida tibbiyotda uchramagan yangi kasalliklarining kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda.

Bilib bilmay targ'ibot qilish, ba'zi bir insonlardagi dunyoqarash, islomiy ta'limotning yetishmasligi, internetdagi blogerlarning olayotgan video-kontentlaridagi ko'pxotinlilikni provakatsiya qilish maishiy hayotimizdagi oilaning o'rnini qadriyatlar ro'yxatidan o'chirishiga va chirigan g'arb madaniyati mevasining qizarishiga olib keladi.

So'nggi yillarda ko'pxotinlilik kabi mavzu ko'proq muhokama qilinmoqda. Bu nima? Ushbu hodisani eng yaxshi tasvirlaydigan so'z ko'pxotinlilikdir. Ya'ni, bu nikoh ikki jinsdagi bir juft va bir nechta qarama-qarshi jinsdagilar o'rtasida bir vaqtning o'zida tuzilgan vaziyatdir.

Insoniyat shiddat bilan rivojlanar ekan nikoh institutida ham o'zgarishlar, ijtimoiy karroziyaga sabab bo'ladigan holatlar ham uchraydi. Bugungi kunimizda nikoh mavzusida so'z borar ekan monogamiya, poligamiya, poliandriya, poliginiya kabi atamalar haqida mulohaza qilmasdan ilojimiz yo'q. G'arb mamlakatlarida bu turdagi nikohlar keng tarqaldi. Yurtimizda monogamiya (normal nikoh, ya'ni ikki jins vakilidan iborat bir juftlik), poligamiya (o'z navbatida ushbu nikoh turida bir erkakka nikohlangan ayollar soniga qarab bigamiya-qo'shxotinlilik, triogamiya-uchxotinlilik va undan ortiq xotin sohiblariga qarata qo'llaniladi) va poliandriya (bir ayolning bir nechta erkakka xotin bo'lib nikohlanishi tushuniladi) kabi turlar uchraydi. G'arbiy yevropa mamlakatlarida esa, yana bir tur poliginiya (guruhli nikoh yoki "davra nikohi" bir nechta shakllarda bo'lishi mumkin, masalan, bir nechta erkak va bir nechta ayol bitta oilaviy birlikni tashkil qiladi va nikohning barcha a'zolari ota-onalik majburiyatini o'z farzandlaridan oladi. Nikoh faqat ilmiy fantastika bilan sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yana bir kelishuv bu, uzoq vaqt saqlangan "guruhli nikoh"dir. Bu guruhda vafot etgan yoki ajralgan er-xotinlar doimiy ravishda boshqalari bilan almashtiriladi, shuning uchun oilaviy mulk meros orqali nasl-nasabda qoladi) holatlari ham uchraydi. Oilaga bo'lgan munosabatni, farzand tarbiyasining ahamiyatini unitib qo'ygan g'arbnik demokratik davlatlari yuqoridagi kundalik turmush tarzi bilan necha yillar davomida yashamoqda.

Dunyo shu darajada taraqqiy topdiki, demokratiya keng quloq yozdi. Odamzotga qanchalik ko'p huquq berilmasin, u yanada ko'prog'ini istashni boshladi. Oila institutining mijozlari kamayib, shartnoma asosida turmush qurishlar yildan-yilga ortib bormoqda. Bu esa islom huquqiga zid hisoblanadi. Yevropadagi bu boradagi targ'ibotlar televideniya va kino va seriallardagi syujetlarda namoyon bo'ladi. Insoning ajralmas bir bo'lagiga aylangan telefonlarda ham internet saytlari orqali turli xildagi ko'pxotinlilikni targ'ib qiluvchi kontentlar ko'paydi. Bu kimning aybi? Asosiy jabrlanuvchi bolalarning taqdiriga nima bo'ladi? Albatta, bu hodisa haqida fikr yuritarkanmiz tarixga nazar solishimiz tabiiy. Qo'shxotinlilikdagi tarixiy andoza qanday bo'lgan edi? Tarixiy jihatdan, odamlar kamolotga yetishmagan, individual potentsialini bajara olmagan va natijada haqiqiy muhabbatga asoslangan muvaffaqiyatli sheriklik va oilaga erisha olmagan. Shaxsiy, oilaviy, ijtimoiy va jahon darajasida baxt va qoniqishning yechimini ko'pxotinlilikda deya fikrlashgan. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda Amir Temurning 50 ta xotini, Chingizxonning 1000 ta xotini bo'lgan deyishadi, bu qanchalik to'g'ri faqat va faqat tarixga ayon. Biz bundan shunday xulosa chiqarishimiz mumkin, o'tmishda zodagonlar, badavlat oqsuyaklar, hukmdorlar, davlat arboblarning bir nechta o'nlab hattoki yuzlab xotinlari bo'lgan. Ammo tarixdagi davr bilan bugungi davrni taqqoslash o'rinsizdir. Zamon taqozosi bilan tarixda ko'plab urushlar, oldini olinmagan o'latlar va yana boshqa tarixiy vaziyatlar sodir bo'lgan. Natijada erkaklar soni keskin qisqarib ketgan. Beva ayollar, yetim bolalar va urush natijasida nogiron erkaklar soni ko'paygan. Sog'lom, baquvvat erkaklar qo'shxotin olishgan, chunki aholini ko'paytirish va podshohlar g'aznasini ko'ppaytiradigan soliqlar jon boshiga olingan va albatta urush zararlarini tiklash maqsadida askarlar sonini to'ldirish, bo'shagan omborlarni to'ldirish, ziyon yetgan inshootlarni tiklash uchun ham chiniqqan, sog'lom, bardam-baquvvat erkaklar havo kabi zarur edi. Shu sababli muammo yechimi sifatida beva ayollarni o'znikohiga olish qaralgan. Shundan so'ng, demografik balansga erishilgan. Tarixiy davrdagi maishiy hayot bunga ruxsat bergan. Bugunchi?

Bugun ham bu ijtimoiy holatni qo'llash mumkinmi? Jamiyatimiz buni qanday qabul qiladi? Bu savollar hozirda kun mavzusiga aylanib ulgurdi. Savollar din va huquqning o'zaro nozik kesishgan nuqtasidan berilmoqda. Dinimiz islomda to'rttagacha xotin olishga ruxsat berilgan, bu borada:

Imom al-Buxoriy rivoyat qiladilar:

“G‘aylon ibn Salama Saqafiyning musulmon bo‘lish arafasida o‘nta xotini bor edi. Nabiyl alayhissalom unga: “Ulardan to‘rttasini tanlab ol”, – dedilar”.

Imom Abu Dovud rivoyat qilishlaricha, Umayra Asadiy:

“Musulmon bo‘lganimda sakkizta xotinim bor edi. Buni Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallamga zikr qilgan edim, u zot menga: “Ulardan to‘rttasini tanlab ol”, – dedilar”, – deb aytgan.

Demak, Islom dini vujudgan kelishidan ilgari zamonlarda ham ko‘pxotinlilik nafaqat mavjud bo‘lgan, balki avj olgan bo‘lib, ma‘lum bir son bilan chegaralanmagan ham. Kimda o‘nta, kimda sakkizta, yigirmata yoki undan ko‘p xotin bo‘lishi mumkin bo‘lgan. Xullas, Islom inson hayotiga kirib qolgan bu hayvoniy holatlarni bartaraf etib, yuqorida sanalgan va yana sanalmagan ko‘p hikmatlar yuzasidan xotinlar sonini to‘rttagacha chegaralagan. Ammo bu aslo amr emas, balki ruxsatdir. Ruxsat bo‘lganda ham, adolatli bo‘lish sharti bilan berilgan ruxsatdir! Oyatning o‘zida ham:

«Agar adolat qila olmaslikdan qo‘rqsangiz, bittani...» – deyilgan.

Mazkur adolat, ya‘ni er tomonidan xotinlari orasida o‘rnatilishi lozim bo‘lgan adolat muomalada, nafaqada, hayotiy ishlarda va hatto birga yotishda ham bo‘lmog‘i shart. Ushbu oyat va ko‘pgina hadisi shariflardan kelib chiqib, ulamolarimiz bu masalani fiqh kitoblarimizda mayda-chuydasigacha batafsil bayon qilib berganlar.

Dinimiz islom ko‘pxotinlik masalasiga allaqachonlar chora ko‘rdi, ammo davlatimiz qonunchiligi muvozanatga erishdimi?

Hozirda Daryo.uz ma‘lumotlariga qaraganda, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisida “O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga va O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi qonun loyihasi ko‘rib chiqildi.

Taklif etilayotgan qonun loyihasi bilan milliy, irqiy, etnik yoki diniy mansubligiga qarab bir toifa fuqarolarni boshqa toifa fuqarolardan ustunligini yoki nuqsonli ekanini targ‘ib qilganlik, nikohi qonunda belgilangan tartibda qayd etilmagan shaxslar o‘rtasida nikoh tuzishga doir diniy marosimni amalga oshirganlik uchun ma‘muriy va jinoiy javobgarlik belgilash nazarda tutilmoqda.

Shu bilan birga, loyiha bilan **ikki yoki undan ortiq xotin bilan er-xotin bo‘lib yashashni targ‘ib qilganlik**, xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligini ochiqdan-ochiq inkor etganlik **uchun ma‘muriy javobgarlik belgilanmoqda**.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi 126-moddasi: “Ko‘p xotinli bo‘lish, ya‘ni umumiy ro‘zg‘or asosida ikki yoki undan ortiq xotin bilan er-xotin bo‘lib yashash. Bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.”

Bu jazo choralari, qonuniy o‘zgartirishlar masalani batamom cheklashga ko‘maklashadimi?

Bugungi kunda respublikamizda qonuniy nikohi bo‘lmagan, faqatgina diniy rasm-rusumlar orqali tuzilgan nikohlar soni ortib bormoqda. Buning ortidan esa o‘z o‘zidan ko‘pxotinlilik holati oshib boryapti. Achinarlisi, mana shunday qonuniy nikohi bo‘lmagan oilalarda tug‘ilgan farzandlar soni ortyapti. Bu esa ijtimoiy muammolar vujudga kelishiga sabab bo‘lyapti.

Statistikaga ko'ra, qonuniy nikohsiz tug'ilgan bolalar soni ham oshgan. Xususan, 2022-yilda respublika bo'yicha 18 955 ta holatda tug'ilgan chaqaloqlar yolg'iz ona arizasi asosida qayd etilgan. 2021-yilda ushbu ko'rsatkich 19 037 tani, 2020-yilda 16 564 tani tashkil qilgan edi. Yildan yilga oshib borayotgan ushbu ko'rsatkichlar vaziyatning naqadar achinarli holatga kelib qolganini anglatadi.

Fuqarolarimiz diniy rasm-rusumlar orqali nikoh tuzilganda qonunga murojaat qilishmaydi, ammo bu nikoh muvaffaqiyatsiz bo'lsa, aliment undirish, otalikni belgilash, meros masalalarida esa bevosita qonunga murojaat qilishga majbur bo'lishyapti. Bu vaziyatda ular o'zlarining qonunda belgilangan majburiyatlarini bajarmaganliklari uchun qonun ham ularning manfaatlarini himoya qila olmayapti.

Bu borada biz fuqarolarimizda ham diniy, ham huquqiy ongni mukammal darajada shakllantirishimiz kerak. Yuksak ong – fuqarolik jamiyatini qurishimizda asosiy ko'makchi omil hisoblanadi. Axloqiy va dunyoviy qarashlarni bir qolip ostida birlashtirib maishiy hayotga tatbiq qila oladigan namuna ko'rsatishimiz kerak. Jamiyat o'z huquq va majburiyatini anglab yetgandagina, ish samarasi tez fursatda ko'zga tashlanadi. Demografik inqirozga tobora yaqinlashib kelayotgan AQSH hamda g'arb mamalatlari huquqiy institutlari ko'pxotinlikka qarshi reformatsiyani boshlab yuborgan. Xalqaro andozani biz nafaqat g'arb mamlakatlaridan, balki islom dinidan ham olmog'imiz darkor. Jamiyatimiz to'la, farovon hayotda yashamog'i uchun tizimli tartibda rejalashtirilgan dastur ishlab chiqib ijtimoiy hayotda ko'zga yaqqol namoyon bo'lgan illatni surib chiqarmog'imiz zarur. Amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlarga har bir jins vakili o'z hissani qo'shishi, hattoki isloh qilishi mumkin. Tayanchimiz bo'lmish oilani asrab qolish har birimizning burchimizdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Chapman, Samuel A. 2001-yil. Ko'pxotinlilik, katta xotinlik va inson huquqlari to'g'risidagi qonun.
2. Injilda ko'pxotinlilik. 2006 -yil, 9-dekabr
3. Islomda ko'pxotinlilikka qachon ruxsat berilgan? 2006 -yil, 9-dekabr
4. Laura McKinney. 2021-yil. Ko'pxotinlilik.
5. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Tafsiri hilol
6. Walker J. Ko'pxotinlilik va ko'perlilik o'rtasidagi farq